

**RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK
XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich

Andijon mashinasozlik instituti, “Transport logistikasi” kafedraasi assistenti

E-mail: sshodmonov1989@gmail.com;

Tel.: +998993217989.

Toshkentda Sohaviy rivojlanish bo'yicha ekspert kengashining “O'zbekiston transporti va logistikasi: rivojlanish borasidagi to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari” mavzuida biznes-forumi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan “O'zbekiston biznes-forumi” loyihasi va “Central Asia Consulting Group” xususiy konsalting kompaniyasi ko'magida tashkil etilgan ushbu tadbirda transportda yuk jo'natish va logistika sohasida faoliyat ko'rsatayotgan davlat organlari, xususiy kompaniyalar hamda ekspert hamjamiyati vakillari ishtirok etdi. Ular O'zbekistonda transport sohasi va logistikani rivojlantirishning bugungi ahvoli hamda istiqboli bilan bog'liq masalalarni keng muhokama etdi [1-3].

Mamlakatimiz Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan. SHu munosabat bilan aytish joizki, Yevropa Ittifoqi va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida tovar ayirboshlash muntazam ortib bormoqda va bu boradagi ko'rsatkich yiliga bir trillion AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. SHuning 20 milliard dollari transport sarf-harajatlari ulushiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda xalqaro tranzitdan foydalanish va xalqaro transport kommunikatsiyalari tizimida keng ishtirok etish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bunday yondashuv milliy kompaniyalar uchun ham foydali. Negaki, bu ularga keng ko'lamli korporativ tizimlarni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi. SHu sababli respublikamizda avtotashishlar imkoniyatlari va mahalliy hamda xorijiy korxonalarga logistika xizmatlarini ko'rsatish mexanizmini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. SHu bilan birga, O'zbekiston tovarlar va xizmatlar eksporti hamda importi hajmini yildan-yilga oshirmoqda [4-6].

Mamlakatimizda transport sohasida turli mulkchilik shakliga ega 5300 dan ziyod kompaniya va firma faoliyat yuritmoqda. YAlpi ichki mahsulotning 12 foizi transport sohasi ulushiga to'g'ri keladi. “O'zbekiston havo yo'llari” milliy aviakompaniyasi har yili byudjetga 1 million 300 ming AQSH dollaridan ortiq,

“O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksionerlik kompaniyasi esa 1 million 120 ming dollar mablag‘ kelib tushishini ta‘minlaydi. Jami xalqaro tashishlarning 75 foizi temir yo‘l transportida amalga oshiriladi. O‘zbekiston temir yo‘llar uzunligi bo‘yicha dunyoning dastlabki o‘ttizta davlati qatoriga kiradi. Mamlakatimiz ichki tashishlarining 65 foizi esa avtomobil transporti ulushiga to‘g‘ri keladi. YUk oqimlari sur‘atining o‘sishi, harakatlanadigan transport tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston MDHda birinchilardan hisoblanadi [7-10].

Soha mutaxassislarining fikricha, O‘zbekiston transport kommunikatsiyalari nuqtai nazaridan noqulay erda joylashgan. YAqin dengiz bandargohigacha mamlakatimizdan chiqadigan yuklar kamida ikki davlat chegarasidan o‘tishi lozim. Bu esa tariflar va, pirovard natijada, tovar narxining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Tovar qiymatining 100 foizidan 40 foizi logistika uchun sarflanadi.

Servis punktlari, omborlarning yo‘qligi ham bu borada e‘tiroz tug‘dirmoqda. Ushbu sohada ishchi kuchi ham etishmaydi. Bu masalalarning hal etilishi, avvalo, transportda yuk jo‘natish va logistika xizmatlari ko‘rsatadigan mamlakatimiz korxonalari raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud to‘siq va chegirmalarni batafsil tahlil qilish, xususiy sektor va ixtisoslashtirilgan davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik yo‘llarini aniqlashni taqozo etadi. Masalan, Navoiy, Toshkent va Farg‘ona vodiysida logistika markazlarini tashkil etish zarurligi qayd etildi. Bu borada bojxona qonunchiligini takomillashtirish, tranzit jarayonlarini soddalashtirish, mamlakatimiz transport kompaniyalarining xorijlik sheriklar bilan o‘zaro hamkorlik qilishi katta ahamiyatga egadir [11-13].

SHuningdek, xususiy sektorga investitsiya jalb qilish va transport sohasida monopolizmni kamaytirish zarur. Avtoyo‘llar sifatini yanada yaxshilash, tegishli infratuzilmaga ega avtomagistrallar barpo etish ham alohida e‘tibor talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 dekabrda qabul qilingan “2007-2010 yillarda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llari qurilishini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida jahon transport tizimiga samarali integratsiyalash uchun zarur bo‘lgan – MDH va Yevropa mamlakatlariga chiqishni ta‘minlaydigan shimoliy va shimoli-g‘arbiy, Fors ko‘rfazi hamda Qora dengiz bandargohlariga olib boradigan – janubi-g‘arbiy va janubiy yo‘nalishdagi avtoyo‘llarni bosqichma-bosqich qurish hamda rekonstruksiya qilish ko‘zda tutilgan [14-16].

Soha muammolarini hal etishda mamlakatimiz kompaniyalariga o‘z manfaatlarini himoya qilishda har tomonlama ko‘maklashadigan transport uyushmasi muhim o‘rin tutishi lozim. Davlat tuzilmasi va xususiy sektor transport va logistika sohasini rivojlantirish borasida o‘z sa’y-harakatlarini birlashtirishi darkor. 2018 yil 21 senyabr kuni “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkoniyatlar” xalqaro konferentsiyasi bo‘lib o‘tdi.

Respublikamiz tashqi iktisodiy faoliyati va tashqi iqtisodiy siyosatining muxim yo‘nalishlaridan biri respublikamiz va Markaziy Osiyo Respublikalarining transport-tranzit va logistika infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev parlamentga Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi hamda mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo‘laklarini izchil shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini qayd etgan edi [17-20].

2018 yilning dekabr oyida Prezidentimiz qarori bilan 2018- 2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash bo‘yicha kompleks dastur qabul qilindi. Mazkur dasturda O‘zbekiston- Turkmaniston- Eron- O‘mon, O‘zbekiston- Qirg‘iziston- Xitoy xalqaro transport yo‘laklari, shuningdek, Eron (BandarAbbos, CHababar) va Pokiston (Gvadar, Karachi) dengiz portlariga chiqish uchun transafg‘on transport yo‘lagini qurish bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni jadallik bilan hayotga tatbiq qilishga alohida ahamiyat berilgan. Qayd etish kerakki, 2017 yilning mart oyida O‘zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining uchrashuvi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston- Turkmaniston- Eron- O‘mon transportkommunikatsiya yo‘lagining muhim uchastkasini amalga oshirishga kirishildi: Amudaryo orqali Turkmanobod- Farob temir yo‘li hamda avtomobil yo‘li ko‘priklari ochildi. Natijada konteynerlarda yuk tashish hajmi 2,5 baravar ko‘paydi. O‘zbekiston- Turkmaniston- Kaspiy dengizi- Bokuga chiqish orqali Janubiy Kavkaz- Tbilisi- Kars yo‘nalishi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri transportkommunikatsiya magistralini yaratish g‘oyasini amalga oshirish hamda Gruziya, Turkiya, Ruminiya va boshqa davlatlarning Qora dengiz bo‘yidagi portlariga chiqish imkoniyati ochilmoqda [21-23].

Bundan tashqari, 20 yillik muzokaralardan so'ng Xitoy va Markaziy Osiyoni Qirg'iziston orqali bog'laydigan temir yo'l qurilishida ham jiddiy siljish yuz berdi. Misol uchun, 2017 yilning 25- 27 dekabr kunlari XXR, Qirg'iziston va O'zbekiston delegatsiyalarining Toshkentda bo'lib o'tgan uch tomonlama uchrashuvida O'zbekiston- Qirg'iziston- Xitoy loyihasini jadal ro'yobga chiqarishga qaratilgan amaliy qaror qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018 yilning oxiriga qadar yo'nalishni aniq belgilash, texnik-iqtisodiy asoslantirishni ishlab chiqish hamda uni moliyalashtirish masalalarini hal qilish kutilayapti. Ushbu yo'lak Xitoydan yuklarni eng qisqa masofa bo'ylab Markaziy Osiyo orqali Janubiy Osiyo hamda YAqin SHarq mamlakatlariga, Transkavkaz yo'lagi orqali Evropaga etkazib berish imkoniyatini yaratadi [24-26].

Loyihaning dastlabki parametrlariga ko'ra, yuklarni konteynerlar orkali etkazib berish muddati 7-8 sutka, SHarqiy Osiyodan YAqin SHarq va Janubiy Evropa mamlakatlarigacha bo'lgan masofa esa 900 kilometr qisqaradi. SHu o'rinda Afg'oniston Prezidenti Ashraf Fanining 2017 yil dekabr oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan Mozori SHarif- Hirot temir yo'lini qurish to'g'risidagi bitimni alohida qayd etish lozim. Ushbu yo'lak ilgari O'zbekiston tomonidan qurilgan birinchi transport yo'lagi- Hayraton- Mozori SHarif temir yo'lining davomi hisoblanadi. 2014 yilda AQSH Moliya vazirligi Osiyo taraqqiyot bankini Afg'oniston Islom Respublikasi iqtisodiyotini tiklash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mazkur tarixiy loyihani amalga oshirishni moliyalashtirishga ko'maklashgani uchun taqdirladi. Bugungi kunda ushbu magistral orqali Afg'oniston importining qariyb yarmi olib kirilmoqda. Ular orasida insonparvarlik yuklarining hajmi katta o'rin tutadi.

Mazkur temir yo'lining yotqizilishi va uning samarali faoliyat olib borishiga erishish Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Afg'onistonning xalqaro transport va savdo tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyasiga xizmat qiladi.

Birinchidan, u Afg'onistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarga haqiqiy hissa qo'shishga zamin yaratadi. Masalan, Osiyo taraqqiyot bankining hisob-kitoblariga ko'ra, Hayraton- Mozori SHarif temir yo'li foydalanishga topshirilishi natijasida 1,2 ming nafarga yaqin kishilar ishga joylashtirildi. Temir yo'l bo'ylab afg'onlarning bandligi o'sish sur'atlari yiliga 1011 foizni tashkil etdi va natijada 2008 yilgi ko'rsatkichga nisbatan ikki baravar oshdi [27-28].

Bundan tashqari, Kobul tovar ayirboshlash hajmi va yuklar tranzitini ko'paytirishdan qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lish hisobiga tashqi donorlik yordamiga qaramlikdek o'tkir muammoni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda bunday yordam mamlakat YAIMning qariyb 90 foizini tashkil qiladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, temir yo'l liniyasi qurilishi yakunlanganidan so'ng birinchi yilda konteynerlar orkali yuklar tranziti hajmi taxminan 5,3 million tonna, istiqbolda esa yiliga 15 million tonnaga etishi mumkin.

Ikkinchidan, ko'zda tutilgan loyihaning hayotga tatbiq etilishi afg'on tinchlik jarayoniga jalb qilingan mamlakatlar o'rtasida mintaqaviy konsensusga erishishda yangi bosqich bo'ladi hamda ularning o'zaro raqobati uchun emas, balki hamkorligi uchun xolis sharoit yaratadi. Loyihaning ro'yobga chiqarilishidan Afg'onistonning qariyb barcha qo'shnilari, avvalambor, Hindiston, Eron va Pokiston iqtisodiy naf ko'radi. Bugun to'g'ridan-to'g'ri transport yo'llarining yo'qligi bois Hindiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi mavjud salohiyatdan juda past bo'lib qolmoqda, ya'ni 1,1 foizni ham tashkil qilmaydi [29-30].

Hindiston CHababar port infratuzilmasini rivojlantirishga 500 million dollar investitsiya kiritdi. Ushbu yo'lining ishga tushirilishi Eronning port infratuzilmalari tranzit salohiyatidan faol foydalanish imkonini beradi hamda Tehronning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik munosabatlariga yangi ruh bag'ishlaydi. Binobarin, Tehron Afg'oniston hududi orqali o'tadigan transportkommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

2017 yilning sentyabr oyida Eron- Afg'oniston temir yo'lining mazkur mamlakatdan o'tadigan uchastkasi- Xaf shahridan Afg'oniston bilan chegaradosh SHamti shahrigacha bo'lgan qismi qurib bitkazildi. YAqin vaqt ichida Eronning Xaf shahridan Hirotgacha temir yo'l yotqizishni yakunlash rejalashtirilayapti. Bu kelajakda Afg'onistonning yaxlit temir yo'l tizimi bilan bog'lanib, Pokistonning Karachi portiga to'g'ridan-to'g'ri yo'l ochadi. Pokiston Temir yo'llar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Jahon banki ushbu loyihaning texnik parametrlariga qiziqish bildirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аббасов Саидолимхон Жалолиддин угли, Шодмонов Сайидбек Абдувайитович, & Хомидов Анварбек Ахмаджон угли. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(1), 101–108. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1972>
2. Шодмонов С. А., Ортиков С. С., Abdiraxmonov R.A International jurnal for innovative Enjineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTOROTION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404. <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3> 3 0.33 ball
3. Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Определить Поток Пассажинов В Районе Города. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 79-87. <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/269>
4. Gafforov Mukhammadzokir, Tursunboyev Murodjon LOGISTIC MANAGEMENT OF URBAN PUBLIC TRANSPORT // Бюллетень науки и практики. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/logistic-management-of-urban-public-transport> (дата обращения: 24.11.2022).
5. Gafforov Mukhammadzokir, Akromaliyev Otkir DIGITALIZATION OF CUSTOMS DUTIES // Бюллетень науки и практики. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/digitalization-of-customs-duties> (дата обращения: 24.11.2022).
6. Akbarjon, Gaffarov Makhamatzokir METHODS OF PASSENGER TRANSPORT LOGISTICS DEVELOPMENT IN THE CITY // Бюллетень науки и практики. 2020. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-passenger-transport-logistics-development-in-the-city> (дата обращения: 24.11.2022).
7. Саримсаков Акбар Муминович ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПАССАЖИРСКОМ ТРАНСПОРТЕ // Universum: технические науки. 2021. №10-2 (91). URL:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-razvitiya-kommunikatsionnyh-tehnologiy-v-passazhirskom-transporte> (дата обращения: 24.11.2022).
8. Насиров, И. З., & Уринов, Д. О. (2021). Технология получения экологически чистого топлива для автотранспорта. Научно-технический журнал НаМИЭТ (Наманган муҳандислик технологияи институти илмий-техника журнали), Наманган: НамМТИ, 188-193.
 9. Nasirov Ilham Zakirovich , Rakhmonov Khurshidbek Nurmuhammad ugli , Abbasov Saidolimkhon Jaloliddin ugli. (2022). Tests Of The Braun Gas Device. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1545–1550. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S08.185>.
 10. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова «Тарози тошларининг яратилиш тарихи». Фан ва жамият журнали 2022/3
 11. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова Физика фанининг шаклланишида Осиё алломаларининг ўрни. Наманган муҳандислик технология институти ФИЗИКА-2022 Форум 3 октябрь 2022 йил.
 12. G.Komolova. “Hosilani ketma-ketlikdagi ba’zi masalalarni yechishga tadbiq’i.” “O’ZBEKISTON VA AVTOMOBIL SANOATI: FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 386-389 betlar, AndMI.
 13. Комолова Гулхаё, Халилов Муродил, “Stages of drawing up a mathematical model of the economic issue ”, Journal of ethics and diversity in international communication. Испания -2022.
 14. То’уحيyev.Sh.Sh, &. А. (2022 г.30-апрел). БА’ЗИ NOAN’ANAVIY MASALALARNING YECHIMLARI. Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences, сг: 65-68.
 15. Sarimsakov Akbarjon, Gaffarov Makhamatzokir METHODS OF PASSENGER TRANSPORT LOGISTICS DEVELOPMENT IN THE CITY // Бюллетень науки и практики. 2020. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-passenger-transport-logistics-development-in-the-city> (дата обращения: 24.11.2022).
 16. Саримсаков Акбар Муминович ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПАССАЖИРСКОМ ТРАНСПОРТЕ // Universum: технические науки. 2021. №10-2 (91). URL:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-razvitiya-kommunikatsionnyh-tehnologiy-v-passazhirskom-transporte> (дата обращения: 24.11.2022).
17. Мирзаев Қахрамонжон Султонович 2022/5/25 Илм-фан, маданият, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари ҳамда уларнинг иқтисодийга таъсири. Андижон машинасозлик институти ва Воронеж Давлат техника университети, 299-303 б.
18. Қ.С.Мирзаев ва Ҳ.Қ.Ахмаджонова 2022/4/22 Автомобилларга оид мутахассисликларда таҳсил олаётган талабаларда экологик билим ва маданиятни шакллантиришда, янги педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари, Инновационные подходы к современной науке. Российский университет Дружбы народов. Москва, Том-3, №3, 68-70 б.
19. Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich, Abbasov Saidolimxon Jaloliddin o'g'li, & Xomidov Anvarbek Axmadjon o'g'li. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIB CHIQUISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(1), 83–90. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1970>
20. Носиров, И. З., & Умаров, А. А. (2014). Озонная смесь для двигателя внутреннего сгорания. Вестник АСТА Туринского политехнического университета в городе Ташкенте, (4), 55-59.
21. Насиров И.З., Тешабоев У.М. Высокоэффективный реактор с электролизёром для двигателя внутреннего сгорания // Просвещение и познание. 2022. №1 (8). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vysokoeffektivnyy-reaktor-s-elektrolizyrom-dlya-dvigatelya-vnutrennego-sgoraniya> (дата обращения: 23.11.2022).
22. N.I.Karimxadjayev I.B.Erkinov G.A.Turgunova (2021) “Development of the foundation of integrated methods of teaching the theoretical knowledge in the distance education system using information technology” “Proceedings of ICRAS-2021 International Conference, 52-55.
23. T.O.Almataev G.A.Turgunova (2021) **“Plastics in automotive industry” journal of innovations in scientific and educational research volume-1, issue-7 (part-1, 30-october), 16-24.**

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

- 24.Г.А.Тургунова (2021) “Бринелл усулида материал каттиқлигини аниқлаш жараёни таҳлили” “Интернаука” часть 6, 31-34.
- 25.А.А.Хомидов . XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI TURLARI. “ИРТЕРНАУКА” Научный журнал, №22(198) Часть 5, 9-12 ст.
- 26.Хомидов, АА, Abdurasulov, MSh . YO’LOVCHI VA YUK TASHISH SHARTNOMASI VA UNING MAZMUNI, MOHIYATI. “ИРТЕРНАУКА” Научный журнал, №45(221) Часть 3, 98-99 ст,
- 27.Хомидов, А.А., Abdirahimov, А.А. (2021). TRANSPORT LOGISTIKASIDA ZAHIRALAR VA OMBORLASHTIRISH. Internauka,(45-3) , 100-103.
- 28.Рахмонов, Х. Н., & Насиров, И. З. (2021). Обогащение синтез газом топливовоздушной смеси ДВС. In Матер. Международной научно-практической конференции" Современные технологии: проблемы инновационного развития и внедрения результатов (5 августа 2021 г.)". Петрозаводск: МЦНП" Новая наука" (р. 21).
- 29.Rahmatullo Rafuqjon o‘g‘li Rahimov (2022). Avtomobil transportida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat xavfsizligini ta’minlash uslublarini takomillashtirish yo’llari. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, 750-754.
- 30.Zakirovich, N. I., Muminovich, S. A., Mirzaahmadovich, T. U., & Toshtemirovich, G. M. Tests of a reactor for supplying hydrogen and ozone to an internal combustion engine. International Journal of Early Childhood Special Education (INTJECSE) ISSN, 1308-5581.